



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 170 sahifa,
16-mart, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Katta guruh tarbiyalanuvchilarida kasb haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish metodikasini innovatsion ekotizim sharoitida takomillashtirish	18
Uralova Fotima Baxtiyor qizi	
Malakali sportchilarning kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirishda sotsiologik yondashuv (gandbolchilar misolida).....	23
G. A. Valiyeva	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida motor alaiyali bolalarni ruhiy va nutqiy rivojlantirish usullari	27
Suyunova Surayyo Ulash qizi	
Sog'lom bola ekotizimining asoslari: ovqatlanish, immunitet va rivojlanish	31
Israilova Xusnida Adilovna	
Mobil ilovalar yordamida mustaqil o'qishni rivojlantirish	37
Raximova Feruza Najmiddinovna	
Biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	42
Dauekeeva Gulistan Orinbaevna	
Talabalarga ingliz tilidagi matnlarni kommunikativ metod yordamida o'qish texnikasini takomillashtirish usullari	46
Mo'minova Mahliyo Axrorjonovna	
Velosiped haydashning afzalliklari.....	49
Raxmonova Go'zal Bobir qizi	
Компетентностный подход как стратегическая основа модернизации образования и его реализация в преподавании русского языка как иностранного в Узбекистане	54
Мирзакбарова Севда Вахиддиновна	
Umumta'lim maktablarida texnologiya fani mashg'ulotlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari va metodlari.....	58
Ziyamova Gulbaxor Tulabayevna	
Типы аббревиации в русском и узбекском языках: сравнительно-типологический анализ.....	62
Рахмонова Бахтигул Пайзилловна	
Maktabgacha ta'limda nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi	65
Abidjonova Mushtariybonu Qobiljon qizi	
Tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etishda maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalarning o'zaro hamkorlik masalalari.....	71
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Jabborova Shaxina G'affor qizi	
Qadriyatli yondashuv asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish ..	76
G'aybullayev Quvonchbek G'olibovich	
Maktab o'quvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining psixologik tahlili	83
Ismoilova N. Z.	
Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni.....	87
Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich	
Funksional savodxonlikni rivojlantirishda o'qish savodxonligining o'rni va ahamiyati	91
Xatamova Munisa Mamadulla qizi	
Transformatsiyalash tizimi asosida o'quvchilarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi.....	95
Jurayeva Zulayxo Islomovna	
Zamonaviy boshqaruv nazariyalarida rahbar muloqoti (transformatsion, kommunikativ va ishtirokchi boshqaruv yondashuvlari asosida).....	102
Islamova Difuza Dilshodovna	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik kompetentlikni tabaqalashgan yondashuv asosida rivojlantirish mazmuni	107
Begmatova Nasiba Mengnarovna	
Bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini o'rgatish metodikasi	112
Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o'g'li	
Pre-Reading Activities to Enhance Foreign Language Reading Comprehension: Reading "The Adventures of Tom Sawyer" in 10–11 Grades	118
Djumaniyazova Zulfiya Kaliyevna	
Nutq aktlarini o'rgatishda autentik materiallardan foydalanishning metodik imkoniyatlari (filologik yo'nalish talabalari misolida)	122
Fayzulloeva Chevar G'ayrat qizi	
Yangi O'zbekistonda talaba-yoshlarni milliy yuksaltirishda jadid-marifatparvarlari ilgari surgan g'oyalarning o'rni va roli	125
Mamadaliyev Abduvoxid Maxsitaliyevich	
Gimnastikaning O'zbekistonga kirib kelish va rivojlanish tarixi	128
N. Q. Mamasidova	
Uglevodorodlar tarkibini aniqlashda massa ulushiga asoslangan reflektiv yondashuv (7-9-sinflar misolida)	131
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich, Smanova Zulayxo Asanalievna	
Screencasting materiallarini yaratish va ularni o'quv jarayonida qo'llash	134
Maxmudova Dilfuza Meliyevna, Ergashov Niyozxon Ilyozxon o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z shakllanishini psixolingvistik asoslari	137
Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi	
Maktabgacha ta'limdagi muammolar va yechimlar: o'zbekiston respublikasi tajribasi	140
N. Sh. Miryusupova	
Interaktiv kartografik resurslar va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishining didaktik, kognitiv hamda metodik asoslari	143
Olimova Aziza Abdullayevna	
Mentorlik tizimining tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari	147
Oxunova Dilnoza Qaxxorjonovna, Abdumannonova Durdonaxon Shuxratjon qizi	
Talabalarning psixologik holati va stress omillarining prokrastinatsiyaga ta'siri hamda mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash usullari	150
Razakov Farxod Kuvondikovich, Rajabov Hikmat Toshevich	
Talabalarni stulda o'tirgan qiyofachi portreti ranglavhasini ishlashga o'rgatish metodikasi	154
Sadatov Chori Xolmuradovich	
Organik kimyo fanini o'qitishda teskari ta'lim va texnologiyalarning ahamiyati	158
Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi, Babanazarova Ayzada Omirbaevna, Abdulkakimova Gulziyba Ziyatdinovna	
Duduqlanishni bartaraf etishda kompleks metodlarini qo'llashning samaradorligi	162
Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi	
Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini takomillashtirish	165
Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi	
Проектирование персонализированных образовательных сценариев в дошкольном образовании средствами генеративного искусственного интеллекта	168
Пак Диана Александровна	



MENTORLIK TIZIMINING TARIXIY ILDIZLARI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Oxunova Dilnoza Qaxxorjonovna

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, p.f.b.f.d (PhD)

<https://orcid.org/0009-0007-4887-0530>

Abdumannonova Durdonaxon Shuxratjon qizi

Farg'ona davlat universiteti magistranti

<https://orcid.org/0009-0006-7002-4392>

Annotatsiya: Maqolada mentorlik tizimining tarixiy shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Mentorlik tushunchasining kelib chiqishi qadimgi yunon mifologiyasiga, xususan, Gomerning "Odisseya" dostonidagi Mentor obrazi bilan bog'liq. Tarixiy jarayonda mentorlik dastlab norasmiy bilim va tajriba uzatish shaklida namoyon bo'lib, o'rta asrlardagi gildiyalar va shogirdlik tizimi orqali rivojlangan. XVIII asrdan boshlab mentorlik bilim almashinuvi va kasbiy tayyorgarlikka yo'naltirilgan tizimli faoliyat sifatida shakllangan. Maqolada mentorlik jarayonining asosiy bosqichlari – ishonchli munosabatlarni shakllantirish, rivojlantirish va mustahkamlash hamda doimiy muloqotni ta'minlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy sharoitda mentorlikning ta'lim, kasbiy rivojlanish va ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: mentorlik, mentor, mentorlik tizimi, tarixiy rivojlanish, ustoz-shogird, kasbiy rivojlanish.

Abstract: The article analyzes the historical formation and development stages of the mentoring system. The origin of the concept of mentoring is associated with ancient Greek mythology, particularly with the figure of Mentor in Homer's "Odyssey". Historically, mentoring initially emerged as an informal form of knowledge and experience transfer and developed through medieval guilds and apprenticeship systems. From the eighteenth century onward, mentoring began to take shape as a systematic activity focused on knowledge exchange and professional training. The article highlights the main stages of the mentoring process, including the establishment of trust-based relationships, development and strengthening of interaction, and the maintenance of continuous communication. The role of mentoring in modern education, professional development, and social progress is also examined.

Key words: mentoring, mentor, mentoring system, historical development, mentor–apprentice system, professional development.

Аннотация: В статье анализируются исторические этапы формирования и развития системы наставничества. Происхождение понятия наставничества связано с древнегреческой мифологией, в частности с образом Ментора в поэме Гомера "Одиссея". В историческом процессе наставничество первоначально проявлялось в форме неформальной передачи знаний и опыта и развивалось через систему средневековых гильдий и ученичества. Начиная с XVIII века наставничество стало формироваться как систематическая деятельность, ориентированная на обмен знаниями и профессиональную подготовку. В статье освещаются основные этапы процесса наставничества – формирование доверительных отношений, развитие и укрепление взаимодействия, а также обеспечение постоянной коммуникации. Также раскрывается роль наставничества в современном образовании, профессиональном развитии и социальном прогрессе.

Ключевые слова: наставничество, ментор, система наставничества, историческое развитие, система "наставник–ученик", профессиональное развитие.

KIRISH

Mentorlik – bu ikki shaxs, ya'ni ustoz va shogird o'rtasidagi qo'llab-quvvatlovchi hamda tarbiyalovchi munosabatlar majmuasidir. Mentor – nafaqat bilimli va tajribali shaxs, balki yo'l-yo'riq ko'rsatadigan, maslahat beradigan, o'rgatuvchi hamda psixologik yordam ko'rsatuvchi shaxsdir. Mentorlik faoliyatining asosiy maqsadi shogirdning, ya'ni yangi o'qituvchi, talaba yoki xodimning kasbiy rivojlanishini ta'minlash, uning kasbiy qobiliyatlarini oshirish, mustaqil qarorlar qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish hamda o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashdan iboratdir. Mentorlik faoliyati orqali shogird amaliy ko'nikmalarni o'zlashtiradi, metodik yondashuvlar, pedagogik vositalar, o'quvchilar bilan munosabat, baholash tizimi, darsni rejalashtirish kabi jarayonlarni haqiqiy sharoitda o'rganadi. Bundan tashqari, mentorlik faqat bir martalik o'rgatish jarayoni emas, balki doimiy va uzluksiz rivojlanish jarayonidir. Mentor va mentee o'rtasidagi muntazam muloqot, refleksiya, tahlil hamda faoliyatni qayta ko'rib chiqish orqali kasbiy o'sish ta'minlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Mentor” atamasi ilk bor antik davrlarga, ya’ni eramizdan avvalgi VIII asrlardagi yunon adabiyotiga borib taqaladi. Mentor tushunchasi ingliz tilidan olingan bo’lib, Gomerning “Odisseya” asaridagi Mentor obrazidan kelib chiqqan. Asarga ko’ra, Odissey Troya urushiga ketgan vaqtda o’zining yaqin do’sti Mentorni o’g’li Tele-makka ustoz va yo’l-yo’riq ko’rsatuvchi sifatida qoldirgan. Shu sababli mentorlik dastlab shaxsiy maslahat beruvchi hamda tajribali ustoz ma’nosida ishlatilgan ^[1]. Bundan ko’rinib turibdiki, mentorlik atamasi uzoq tarixiy ildizlarga ega bo’lib, uzoq vaqt davomida rivojlanib kelgan. Tarixiy manbalarga ko’ra, mentorlik tizimi o’rta asr hunarmandchilik hamda diniy-ilmiy maktablar faoliyatida shakllangan. Ushbu davrda mentor nafaqat kasbiy mahoratni, balki shaxsiy yetuklikni ham shakllantiruvchi ustoz sifatida namoyon bo’lgan.

Ta’lim jarayonida ustoz va shogird o’rtasidagi munosabatlar qadim zamonlardan buyon mavjud bo’lib, insoniyat taraqqiyotining deyarli barcha davrlarida ustoz shaxsini shakllantirishda muhim omil sifatida qaralgan. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, yunon falsafasida Platon va Arastu ta’limning shaxsiy rivojlanishdagi roliga alohida e’tibor qaratganlar. Arastu o’zining “Nikomax axloqi” asarida ustozning vazifasi nafaqat bilim berish, balki shogirdni hayotga tayyorlashdan iborat ekanligini ta’kidlaydi. Mazkur yondashuv keyinchalik pedagogik mentorlashuv g’oyasining shakllanishiga asos bo’lib xizmat qilgan. O’rta asrlar davrida Sharq allomalari – Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Mir Alisher Navoiy hamda Ahmad Donish kabi mutafakkirlar “ustoz-shogird” an’anasini shaxs kamoloti va ma’naviy yetuklikning muhim omili sifatida talqin qilganlar. Al-Farobiy o’zining “Fozil odamlar shahri” asarida shogirdni tarbiyalashda ustozning shaxsiy namunasi hamda axloqiy fazilatlarini hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Sharq madaniyatida mentorlik “ustoz-shogirdlik” an’anasi shaklida davom etib kelgan bo’lib, bu jarayon nafaqat kasbiy bilimlarni, balki ma’naviy-axloqiy qadriyatlarining uzluksizligini ham ta’minlagan. Shu bois ustozlar shogirdni faqat kasbiy soha bo’yicha emas, balki hayotiy mas’uliyat, odob va halollik ruhida ham tarbiyalaganlar.

XX asr boshlaridan boshlab pedagogika fanida mentorlik tushunchasi ilmiy tahlil darajasiga ko’tarildi. J. Dewey, M. Montessori, A. S. Makarenko hamda V. A. Suxomlinskiy kabi pedagog olimlar tajriba almashish va ustozlik tizimining o’qituvchi shaxsini shakllantirishdagi muhim rolini ilmiy asoslab berdilar. XX asrning o’rtalaridan boshlab mentorlik masalasi psixologiya va sotsiologiya sohalarida ham tadqiq qilina boshlandi. Masalan, amerikalik psixolog D. Levinson mentorni shaxsiy hamda professional rivojlanishda yo’l-yo’riq beruvchi, karyera shakllanishida muhim rol o’ynaydigan shaxs sifatida ta’riflaydi. U mentoring inson hayotida muhim rivojlantirish vazifasini bajarishi, karyera o’sishiga hamda mustaqil shaxsiyatni shakllantirishga yordam berishini ta’kidlaydi ^[2].

Bundan tashqari, ijtimoiy psixolog K. Kram mentorlikka oid eng nufuzli tadqiqotchilardan biri bo’lib, uning ilmiy ishlari asosan ish joyidagi rivojlanish munosabatlariga bag’ishlangan. K. Kram 1985-yilda chop etilgan “Mentoring at Work: Developmental Relationships in Organizational Life” nomli asarida mentorlik munosabatlarning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilib, mazkur soha uchun muhim nazariy asos yaratgan. 1970-1980-yillardan boshlab mentorlik pedagogik kontekstda keng qo’llanila boshladi, 1990-yillardan boshlab esa mentorlik tizimi ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida qarala boshlandi.

Pedagogik g’oyalar rivojlanishi tarixida ustoz-shogird an’anasi, ya’ni bugungi kunda “mentorlik” deb ataladigan faoliyat insoniyat jamiyati shakllangan ilk davrlardan mavjud bo’lgan. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, qadimiy jamiyatlarda yoshlarni hayotga, mehnatga hamda ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashda tajribali ustozlar yetakchi o’rin tutgan. O’rta asrlarda Sharq mamlakatlarida ham ustoz-shogird munosabatlari keng rivoj topgan. Ushbu an’anada ustozga hurmat, shogirdga e’tibor, tajriba almashish hamda odob-axloqni o’rgatish asosiy mezon sifatida qaralgan. XX asrning o’rtalaridan boshlab esa “mentorlik” tushunchasi ilmiy-pedagogik termin sifatida G’arb ta’lim tizimida shakllana boshladi. AQSh, Buyuk Britaniya va Kanada kabi mamlakatlarda yangi o’qituvchilarni qo’llab-quvvatlash maqsadida maxsus mentorlik dasturlari joriy qilindi. Masalan, 1980-yillarda AQShda “Beginning Teacher Support and Assessment” (BTSA) dasturi ishlab chiqilib, yangi o’qituvchilarni tajribali ustozlar orqali amaliy tayyorlash mexanizmi yo’lga qo’yildi ^[3]. Tarixiy jarayonlar shuni ko’rsatadiki, mentorlik faqat bilim berish jarayoni emas, balki shaxsiy va kasbiy yuksalishni qo’llab-quvvatlovchi, insoniy qadriyatlarga asoslangan samarali pedagogik mexanizmdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mentorlik tizimi bir kunda shakllanmagan bo’lib, u uzoq tarixiy jarayon davomida xalq pedagogikasidan boshlab zamonaviy innovatsion ta’lim tizimigacha bosqichma-bosqich rivojlanib kelgan. Uning taraqqiyotini shartli ravishda uch bosqichga ajratish mumkin.

- 1. Ustoz-shogird an’anaviy bosqichi, ya’ni xalq pedagogikasiga oid davr.** Bu bosqich insoniyat tarixining eng qadimgi davrlarida paydo bo’lgan bo’lib, xalq og’zaki ijodi, urf-odatlar va milliy qadriyatlarga asoslangan ushbu tizimda ustoz hayot maktabining markaziy shaxsi bo’lgan. Ustoz nafaqat kasb-hunar,



balki axloq, odob, e'tiqod va ijtimoiy hayot madaniyatini ham o'rgatgan ^[4]. Shogird esa ustozidan nafaqat bilim, balki hayotiy tajriba, sabr, sadoqat va halollikni o'rganar edi. Bu davrda ta'lim norasmiy bo'lsa-da, shaxsiy muloqot va qadriyatlar negizida olib borilgan. Ustoz-shogird tizimi xalq pedagogikasining asosi sifatida ko'plab mutafakkirlar – Forobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi allomalarning shakllanishida muhim rol o'ynagan ^[5].

2. **Murabbiylik bosqichi yoki kasbiy shakllanish davri.** Murabbiylik bosqichi ta'lim tizimining rasmiylashuvi hamda kasbiy yo'nalishda shakllanishi davriga to'g'ri keladi. Bu davrda “murabbiy” atamasi o'qituvchilik faoliyatining ma'naviy-axloqiy jihatini ifodalagan. Murabbiylik jarayonida o'qituvchi nafaqat dars o'tuvchi, balki ma'naviy rahbar va shaxs tarbiyachisi sifatida ko'rilgan ^[6]. XX asrning o'rtalaridan boshlab pedagogika fani murabbiylikni o'qituvchining tarbiyaviy hamda ijtimoiy ta'sir ko'rsatish faoliyati sifatida o'rganishni boshlagan. Shu bilan mentorlikning kasbiy shakllanish poydevori yaratildi. O'zbekiston ta'lim tizimida bu jarayon maktablar va pedagogika institutlarida tajribali o'qituvchilar tomonidan yosh kadrlarni o'rgatish orqali davom etgan.
3. **Mentorlik tizimi yoki innovatsion ta'lim yondashuvi.** XXI asr boshlarida “mentorlik” atamasi pedagogika faniga yangi mazmunda kirib keldi. Bu bosqichda mentorlik yangi o'qituvchilarni kasbiy integratsiyaga tayyorlash, ularning refleksiv tafakkurini shakllantirish hamda ijodiy va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tizim sifatida qaraladi. Innovatsion ta'lim yondashuvida mentor o'z shogirdiga individual o'quv trayektoriyasini shakllantirishda yordam beradi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rgatadi, psixologik qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi hamda kasbiy rivojlanish uchun refleksiya (o'z faoliyatini tahlil qilish) ko'nikmasini shakllantiradi ^[7].

O'zbekiston ta'lim tizimida mentorlikning innovatsion bosqichiga o'tish 2020-yildan boshlab davlat darajasida qo'llab-quvvatlana boshlandi. 2025-yil 1-yanvardan kuchga kirgan Prezident qarori (PQ-231-son) asosida mentorlik faoliyati uchun 20% ustama to'lov joriy etilishi ushbu tizimni rasmiy pedagogik faoliyat sifatida mustahkamladi. Bu orqali mentorlik zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi hamda bo'lajak o'qituvchilarni amaliy jihatdan tayyorlashning eng samarali usullaridan biri sifatida e'tirof etildi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mentorlik tizimi tarixiy jihatdan xalq pedagogikasidan zamonaviy innovatsion yondashuvigacha rivojlanib, bugungi kunda ta'lim tizimida yetakchi ahamiyat kasb etmoqda. Ustoz-shogird an'anasi – ma'naviy asos, murabbiylik – kasbiy asos, zamonaviy mentorlik esa – ilmiy-nazariy asos sifatida ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ta'limni samarali va natijaviy tashkil etish ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, bu omillar qatorida eng muhimlaridan biri pedagogning kasbiy salohiyatidir. Pedagogning kasbiy salohiyatini oshirishda mentorlik faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gomer. Odisseya. Qadimgi yunon epik asari. Miloddan avvalgi VIII asr. – 45-b.
2. Levinson, D. J. et al. (1987). Early Adulthood Development. Psychology Press.
3. Feiman-Nemser, S. (1996). Teacher Mentoring: A Critical Review. Journal of Teacher Education, 47(1), 17–30.
4. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1983. – 52-b.
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil shahar ahlining fikrlari. – Toshkent: Fan, 1975. – 63-b.
6. Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 25-b.
7. Kolb, D. (1984). Experiential Learning. Prentice-Hall. – 44-b.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagog kadrlarni tayyorlash va qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi PQ-501-son qarori (2024).
9. Makarenko, A. S. (1988). Pedagogik tajriba. – Moskva: Pedagogika.
10. Suxomlinskiy, V. A. (1979). O'qituvchi qalbi. – Toshkent: O'qituvchi.
11. Levinson, D. J., Darrow, C. N., Klein, E. B., Levinson, M. H., McKee, B. (1978). The Seasons of a Man's Life. New York: Alfred A. Knopf.
12. Kram, K. E. (1985). Mentoring at Work: Developmental Relationships in Organizational Life. Glenview, IL: Scott, Foresman.
13. Feiman-Nemser, S. (1996). Teacher mentoring: A critical review. Journal of Teacher Education, 47(1), 17–30.
14. UNESCO. (2015). Teacher Mentoring and Professional Development. Paris: UNESCO.
15. <https://ziyonet.uz>
16. <https://scholar.google.com>
17. <https://researchgate.net>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.